

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*60812200 – O'simlikshunoslik (ekin turlari bo'yicha)  
bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari*

Qarshi



### **ISHLAB CHIQLIGAN:**

- “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti.

### **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil “11” abeyot dagi 367-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

### **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining umumiy tavsifi</i> .....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	<i>60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanishi</i> .....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi</i> .....	4
1.2.1.	<i>60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari</i> .....	4
1.2.2.	<i>60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari</i> .....	5
1.2.3.	<i>60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari</i> .....	5
1.2.4.	<i>60812200– O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari</i> .....	5
2.	<i>60812200– O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar</i> .....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	7
2.3.2.	<i>60812200 –O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) bakalavr ta‘lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar</i> .....	8
2.3.3.	<i>60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) bakalavr ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi</i> .....	8
	Bibliografik ma‘lumotlar.....	10
	Kelishuv varag‘i .....	11

## **1. 60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining umumiy tavsifi**

**60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha)** ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati - 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi**

Malaka talabi **60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha)** ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv-uslubiy boshqarma (bo‘limi) boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

- oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. 60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

#### **1.2.1. 60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha)** ta‘lim yo‘nalishi qishloq xo‘jaligi sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, o‘simlikshunoslik tarmoqlarida mehnat faoliyatini tashkil etish, mehnatni me‘yorlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda qishloq xo‘jalik ekinlarini o‘stirish, ko‘paytirish, urug‘chilik ishlarini tashkil etish, qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori hosil olish va samaradorligini oshirish, o‘simliklar diversifikatsiyasi ishlarini amalga oshirish, noan‘anaviy ekin turlarini introduksiya qilish, tuproq-iqlim sharoitlariga mos ekin turlari va navlarini tanlash hamda joylashtirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish, me‘yoriy hujjatlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, qishloq xo‘jalik ekinlari yetishtirishning innovatsion texnologiyalari asosida mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshirish bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. 60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- Respublika qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonlar, Respublika Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi, qishloq xo‘jaligi viloyat boshqarmalari, tuman qishloq xo‘jalik bo‘limlari, Respublika fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashi, viloyat va tuman bo‘limlari, O‘simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti va uning viloyatlardagi filiallari, Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti, Urug‘chilikni rivojlantirish markazi va uning elita va urug‘chilik xo‘jaliklari, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan agroklastlar, ekin turlari bo‘yicha dorivor o‘simliklar plantatsiyalari, o‘rmon xo‘jaligi Respublika va viloyat boshqarmalari;

- davlat, aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari.

**1.2.3. 60812200–O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish;
- ilmiy-tadqiqot;
- tadbirkorlik.

**1.2.4. 60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari**

60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

**Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:**

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O‘zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;

- dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;

- vatan tarixini bilishi, ma‘naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

- fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

- nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;

- mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tasavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;
- biokimyoviy, mikrobiologik va biotexnologik jarayonlar qo'llaniladigan ishlab chiqarishda, sog'liqni saqlash korxonalarida, qishloq xo'jaligida, qo'riqxonalarda, baliqchilik xo'jaliklarida va kasbiy faoliyatiga taalluqli zavod va korxonalarda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatish;
- pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;
- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;
- ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;
- ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;
- ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- o'simlikshunoslik fani sohasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

#### **Tadbirkorlik faoliyatida:**

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

## **2. 60812200 –O'simlikshunoslik (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

## **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- meyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;
- qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda ekinlarning biologik xususiyatlari, mintaqaning tuproq iqlim sharoiti ekinlarni yetishtirishning maqsadi inobatga olingan holda talabalarda ozuqaviy qiymati yuqori, tannarxi past o'simliklarni yetishtirish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;
- o'simikshunoslik mahsulotlari yetishtirishda atmosfera azotidan foydalanib biologik azot hosil qiluvchi ekinlar xususiyatidan foydalanish, tuproqqa ishlov berishlar sonini kamaytirish, tuproqqa ishlov bermasdan hosil yetishtirish bo'yicha talabalarda bilim, ko'nikma malaka hosil qilinadi hamda ularni amaliyotda qo'llay olish malakasi shakllantirish chora-tadbirlari rejasini tuzish va nazorat qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan biokimyoviy tahlillarni amalga oshirish uquviga ega bo'lish;
- qishloq xo'jalik ekinlarining tashqi muhit omillariga (namlik, harorat, yorug'lik, tuproq va ozuqa moddalari) talablari, o'sish va rivojlanish xususiyatlari asosida yangi ekinlarni ekish muddatlari, meyorlari, usullari bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka hosil qilinadi hamda ularni amaliyotda qo'llay olish malakasi shakllantiriladi. Unumdorligi past, sho'rlangan, eroziyaga uchragan yerlarda o'sadigan hamda qurg'oqchil yerlarda o'sadigan ekinlarni o'rganish, tanlash va joriy qilish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va ularni samarali usullarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tadbiiq etish ko'nikmalariga ega bo'lish.

## **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisosligidan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

### **2.3.1. Kvalifikatsiya: o'simlikshunos, agronom**

**2.3.2. 60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:**

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta‘lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5100	170
Tanlov fanlar	1320	44
Malakaviy amaliyot	660	22
Davlat attestatsiyasi	120	4

**2.3.3. 60812200 – O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi:**

T/r	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
1.00		<b>MAJBURIY FANLAR</b>	<b>5100</b>	<b>170</b>	
1.01	O‘EYTB1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	DINB1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	FALB1504	Falsafa	120	4	5
1.04	XJTB1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	O‘T O‘SQB1104	O‘zbek (rus) tili: O‘zbek tilini sohada qo‘llash	120	4	1
1.06	JTSB1202	Jismoniy tarbiya va sport	120	4	2
1.07	OMTB1104	Oliy matematika	120	4	1
1.08	ANFKB1104	Analitik va fizkolloid kimyo	120	4	1
1.09	BFAMB1204	Biofizika va agrometeorologiya	120	4	2
1.10	BO‘FBKB1112	Botanika, o‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi	360	12	1,2
1.11	O‘SHKB1104	O‘simlikshunoslikka kirish	120	4	1
1.12	SAKTB1304	Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	120	4	3
1.13	MMBAB1204	Molekulyar va mikrobiologiya asoslari	120	4	2
1.14	O‘ICHMB1306	O‘simlikshunoslikda ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish	180	6	3
1.15	TPAKB1308	Tuproqshunoslik va agrokimyo	240	8	3,4
1.16	DEHMELB1312	Dehqonchilik va melioratsiya	360	12	3,4
1.17	O‘SHIAB1406	O‘simlikshunoslikda ilmiy izlanish asoslari	180	6	4
1.18	O‘MSBTB1506	O‘simlikshunoslik va meva-sabzavotchilikda biotexnologiya	180	6	5
1.19	YCHO‘SHB1406	Yaylov-cho‘l o‘simlikshunosligi	180	6	4
1.20	MEVSABB1308	Mevachilik va sabzavotchilik	240	8	3,4
1.21	O‘GSUB1508	O‘simliklar genetikasi, seleksiyasi va urug‘chiligi	240	8	5,6
1.22	O‘HQB1508	O‘simliklarni himoya qilish	240	8	5,6
1.23	YEXEBYTB1508	Yem-xashak ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	240	8	5,6



1.24	ESSTFB1708	Ekinlarni sug'orish va sug'orish tizimlaridan foydalanish	240	8	7,8
1.25	O'SHBB1712	O'simlikshunoslik	360	12	7,8
1.26	O'MSSAB1704	O'simlikshunoslik mahsulotlarini standartlashtirish va sertifikatlash asoslari	120	4	7
1.27	O'MSQITB1806	O'simlikshunoslik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi	180	6	8
2.00		<b>TANLOV FANLARI</b>	<b>1320</b>	<b>44</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1320	44	3, 4, 5, 6, 7, 8
		<b>Jami</b>	<b>6420</b>	<b>214</b>	
	MALAMAL1222	Malakaviy amaliyot	660	22	2, 4, 6, 7, 8
		Davlat attestatsiyasi	120	4	8
		<b>Jami</b>	<b>780</b>	<b>26</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	



## Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 633

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obykti, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat turi, kredit, modul, bakalavriat, o'quv reja, fan dasturi, o'quv jarayoni, ichki nazorat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza, davlat attestasiyasi, qishloq xo'jaligi ta'lim sohasi, o'simlikshunoslik, ekin turlari, yaylov, donli, dukkakli, moyli, efirmoyli, tolali, sabzavot, meva, texnik, dorivor, manzarali va yem-xashak ekinlari, urug'chilik, elita va reproduksiyali urug'lar, agronomiya, agrotexnik tadbirlar, ekinlarni yetishtirish, tuproq-iqlim sharoiti, dala ekinlarining biologik xususiyatlari, almashlab ekish, texnologik xarita, tuproqning suv, havo, issiqlik va oziq rejimlari, o'g'itlar, urug'lar, ekiladigan materiallar, qadoqlash idishlari, yer, suv, texnika va mehnat resurslari, innovatsion g'oyalar, tashkiliy boshqaruv, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, baholash, sifat nazorati, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

## KELISHUV VARAG'I

### ISHLAB CHIQLDI:

**"TIQXMMI" MTuning Qarshi  
irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti**

Direktor  Z.M. Muqimov

2023 yil « 10 » 07

M.O'.

### KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi**

Direktor  Sh. Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O'.

**Toshkent davlat agrar  
universiteti**

1- prorektor  S.Y. Islamov

2023 yil « 19 » 07

M.O'.

**Janubiy dehqonchilik ilmiy-  
tadqiqot instituti**

Direktor  O.A. Amanov

2023 yil « 17 » 07

M.O'.

**Qashqadaryo viloyati qishloq  
xo'jaligi boshqarmasi**

Boshliq  O.S. Boymirov

2023-yil « 17 » 07

M.O'.

**Agrosanoat majmui ustidan nazorat  
qilish inspeksiyasi Qashqadaryo viloyat  
boshqarmasi**

Boshliq  F.Q. G'ulomov

2023 yil « 18 » 07

M.O'.

**“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti 60812200 - O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida**

## **KELISHUV DALOLATNOMASI**

**Qarshi sh.**

**“ 10 ” 07 . 2023-yil**

Biz quyida imzo chekuvchilar – “TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti direktori Z.M.Muqimov, Toshkent davlat agrar universiteti 1-prorektori S.Y.Islomov, Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori O.A.Amonov, Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i O.S.Boymirov, Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi boshlig‘i F.Q.G‘ulomov birgalikda “TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

### **60812200 - O‘simlikshunoslik (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi.**

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, 2022-yil 21-dekabrda “Yangi O‘zbekistonda ma‘muriy islohotlarni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-sonli Farmonlari va 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2020-yil 31-dekabrda “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta‘minlash chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4939-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi OO‘MTVning 2021-yil 19-oktabrdagi “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standartlari, Asosiy qoidalar” O‘zbekiston Respublikasining davlat standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 35-2021-sonli va Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-iyundagi “Oliy ta‘limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish

jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyruqlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlariga, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**"TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti direktori**

**Z.M.Muqimov**

**Toshkent davlat agrar universiteti  
1-prorektori**

**S.Y.Islomov**

**Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori**

**O.A.Amanov**

**Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i**

**O.S.Boymirov**

**Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi boshlig'i**

**F.Q.G'ulomov**